

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.Toirov	
Texnosivilizatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy talqini	109
B.Mirzaraximov	
Turizmning axloqiy-estetik mohiyatini tadqiq etishga oid metodologik yondashuvlar	117
M.T.Voxidova	
Xondamir asarlarida axloq va adolat g'oyalarining falsafiy talqini	123
D.E.Normatova	
IX-XII asrlarda o'rta osiyoda ilmiy-axloqiy tafakkur rivoji	127
B.X.Tolipov	
Innovatsion iqtisodiy raqobat muhitining yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	131
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy falsafiy mazmuni	135
X.X.Yuldashxodjayev	
Musoxon Dahbidiy merosida davlat boshqaruvi va ma'naviy etakchilik hamda ijtimoiy mas'uliyatning zamonaviy talqini	140
G.I.Hashimova	
Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy, siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida	144
K.Shadmanov	
Literary and rhetorical traditions of latin and greek languages on the formation of english philosophical literature	149
A.A.Mo'ydinov	
Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini	153
A.A.Sayitxonov	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsion usullarning zaruriyati	159
G.M.Bozorova	
Muhammad Sharif Jurjoniyl ilmiy merosi va uning inson tafakkuri rivojida falsafiy ahamiyati	163
D.A.Sobirov	
Inson va mehnat: falsafiy tafakkur tarixida izlanish	168
Z.I.Narziev	
Aziziddin Nasafiyning tasavvuf ontologiyasi va ontologik konsepsiyalarga munosabati	177
X.M.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	183
S.Q.Qaxxorova	
Zamonaviy yoshlar ma'naviyati, axloqiy qadriyatlar va ruhiy barkamollikka yo'l	188
J.J.Shodiyev	
Inson ruhiy barkamolligi va jamiyat barqarorligini falsafiy yondashuv orqali rivojlantirish	192
N.U.Nurmatova	
Abdulkholiq G'ljduvoniylning "Maqomoti Yusuf Hamadoniyl" asari tahlili	196
A.A.Azimov	
Rudakiyl falsafiy qarashlarida ijtimoiy adolat va inson tarbiyasi	200
S.H.Pulatov	
Abu Homid al-G'azzoliyl va Ibn al-Arabiyl ilmiy merosining keyingi davrlarda tadqiqi va bugungi kundagi ahamiyati	206
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiyl ta'limotida borliq nazariyasi.	211
F.A.Qalandarova	
Ijtimoiy tabaqalanish evolyutsiyasi va uning zamonaviy jamiyatdagi yangi ko'rinishlari	217
S.R.Kutlimuratov	
Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi	222
R.Sh.Bozorova	
Yangi O'zbekistonda ayollar intellektual va ma'naviy salohiyatini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar, qadriyatlar va gender adolatning ahamiyati	226
Z.A.Ergasheva	
Yangi O'zbekistonda huquqiy ta'lim va axloqiy tarbiyani uyg'unlashtirish zarurati	230
Sh.F.Polvonov	



UO'K: 1:297.2:141.7

**AZIZIDDIN NASAFIYNING TASAVVUF ONTOLOGIYASI VA ONTOLOGIK
KONSEPSIYALARGA MUNOSABATI****ОНТОЛОГИЯ ТАСАВВУФА И ОТНОШЕНИЕ К ОНТОЛОГИЧЕСКИМ КОНЦЕПЦИЯМ
АЗИЗИДДИНА НАСАФИ****AZIZIDDIN NASAFI'S SUFI ONTOLOGY AND HIS APPROACH TO ONTOLOGICAL
CONCEPTS****Narziev Zubaydillo Ibodilloevich** 

Buxoro davlat pedagogika instituti, "Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti, Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'rta asr tasavvuf ta'limoti va falsafasining yirik namoyandasi, ulug' ajdodlarimizdan biri bo'lgan Aziziddin Nasafiyning tasavvuf ontologiyasiga oid qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, mutasavvifning tasavvuf va falsafa tarixida mutafakkirlar va ta'limotlar tomonidan ilgari surilgan ontologik konsepsiyalarga munosabati hamda o'zining mustaqil pozitsiyasi haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются взгляды на онтологию суфизма Азизиддина Насафи, выдающегося представителя средневекового суфийского учения и философии, одного из наших великих предков. Также представлена информация об отношении мыслителя к онтологическим концепциям, выдвинутым мыслителями и учениями в истории суфизма и философии, а также о его самостоятельной позиции.

Abstract

This article analyzes the views of Azizuddin Nasafi, a prominent representative of medieval Sufi doctrine and philosophy, one of our great ancestors, on the ontology of Sufism. It also provides information about the Sufi's attitude to the ontological concepts put forward by thinkers and teachings in the history of Sufism and philosophy, as well as his own independent position.

Ключевые слова. Азизиддин Насафи, "Книга совершенного человека", "Танзил", "Кашф уль-хакаик", "Баян ут-танзил", "Максад-и акса", "Кашф уль-хакаик", ваджиб уль-вуджуд, мумкин уль-вуджуд, судур, вахдат уль-вуджуд, ишракизм, нур, зат, ваджх, нафс

Key words: Azizuddin Nasafi, "The Book of the Perfect Man", "Tanzil", "Kashf ul-haqoiq", "Bayan ut-tanzil", "Maqsadi aqsa", "Kashf ul-haqoiq", wajib ul-wujud, mugmin ul-wujud, sudur, vahdat ul-wujud, ishraqiyyil, light, zat, wajh, nafs

Kalit so'zlar. Aziziddin Nasafiy, "Komil inson kitobi", "Tanzil", "Kashf ul haqoyiq", "Bayon ut-tanzil", "Maqsadi aqso", "Kashf ul-haqoyiq", vojib ul-vujud, mumkin ul-vujud, sudur, vahdat ul-vujud, ishroqiylk, nur, zot, vajh, nafs

KIRISH

Tasavvuf ontologiyasi tasavvufning ta'limotining o'zi singari kabi murakkab va ziddiyatlidir. Buning asosiy sababi sifatida borliq haqidagi qarashlarning turli ta'limot va yo'nalishlarda xilma-xil tarzda izohlanganligidir. Tasavvufning borliq haqidagi ta'limoti panteistik xarakterga ega bo'lib, Sharq falsafasida bu muammo "vojib ul-vujud", "mumkin ul-vujud", "vahdat ul-vujud", "vahdat ul-mavjud", "vahdat ul-shuhud", ishroq va boshqa yo'nalishlarda talqin etilgan. "Vahdat ul-vujud"ning asosiy tamoyili Xudo yagona, haqiqiy borliq bo'lib, qolgan hamma narsalar uning shu'lasi, nuridir. Alloh butun go'zalligini, kamolotini, kuch-qudratini borliqda namoyon etadi, inson ham Allohning nuri ta'sirida jilvalanadi. "Vahdat ul-vujud"ga ko'ra, inson go'zalligi ham Uning jamolining jilvasi deb ta'lim beradi. Vahdat ul vujud hikmat va kalom ahlining borliq va yaratilish haqidagi qarashlariga qarshi ishlab chiqilgan borliq va yaratilish haqidagi qarash va shunga ko'ra Xudo-inson munosabatlariga asoslangan bilish nazariyadir. Ibn Arabiyning fikricha, "Borliq yagonadir, u ham Haqning borlig'idir".[1.431-433] Bu ibora "vahdat ul-vujud" nazariyasining eng muhim jihatini ifodalaydi. Ko'rinib turibdiki, u "vahdat ul-vujud" tafakkurini markazga olgan yaratilish nazariyasini ishlab chiqishga harakat qilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur mavzuga oid ma'lumotlar Aziziddin Nasafiyning "Komil inson kitobi", "Tanzil", "Kashf ul haqoyiq", "Bayon ut-tanzil", "Maqsadi aqso", "Kashf ul-haqoyiq" kabi asarlarida batafsil bayon qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda analiz, sintez, tarixiylik, sinergetika va germenevtika, vorisiylik, qiyosiy tahlil, usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aziziddin Nasafiyning "vahdat ul-vujud" nazariyasiga asoslangan borliq haqidagi qarashlarini tahlil qilishdan oldin ba'zi masalalarni ko'rsatib o'tish zarur. Ibn Arabiy bilan bog'liq bo'lgan va tasavvuf yo'nalishini ko'p jihatdan belgilab bergan vahdat ul-vujud nazariyasini quyidagicha ta'riflash mumkin: "Alloh mutlaq borliqdir (al-vujud al-haq)" va "Allohdan boshqa borliq yo'qdir". Bu erdagi asosiy fikr "mutlaq borliq Allohdir". Olamda mavjud bo'lgan ko'plik va xilma-xillik mustaqil voqelikka ega emas, balki ular Alloh vujudining namoyon bo'lishi (tajalliy) va zuhur etishidir. Allohning zaruriy va abadiy borlig'ida hech qanday ko'payish (ta'addud), parchalanish (tajazziy), o'zgarish (tabaddul) va bo'linish (taqsim) bo'lishi mumkin emas, garchi U O'zini kasrat olamining shakllari orqali cheksiz ravishda namoyon etsa-da. Uning borlig'i mutlaqdir va uni tushunib bo'lmaydi. Shunday qilib, vahdat ul-vujud nazariyasi yagona voqe'likka asoslangan (monistik) tizim bo'lib, u Xudo va koinot o'rtasidagi munosabatda Allohning borlig'idan boshqa har qanday haqiqiy borliqni inkor etadi, deb aytish mumkin.[10.77-104] "Vahdat ul vujud"ga asoslangan yaratish nazariyasi deb atash mumkin bo'lgan bu tushuncha faylasuflarning sudur nazariyasi bilan o'xshashlikka ega. Lekin aynan o'zi emas. Borliq muammosiga o'ziga xos tarzda yondashuvga ega mutasavviflardan biri Aziziddin Nasafiydir. Nasafiyning borliq haqidagi qarashlari peripatetik falsafa, vahdati vujud tarafdorlari, shariat va hikmat ahli, faylasuflarning qarashlaridan sintezlangan masala sifatida namoyon bo'ladi. Nasafiyning vahdat ul-vujud haqidagi tasavvufiy konsepsiyasi noyob bo'lib hisoblanadi. Tasavvuf ta'limotining aksariyat vakillari, shu qatorda Aziziddin Nasafiy ham, makroolamni Haq nurining yarqirashi yoki tajalliysi deb hisoblashgan, shu bilan birga borliqning birligi va ko'p qirraligini tan olishgan. Mutasavvifning fikricha, bu faylasuflar nuqtayi nazari bilan hamohang, borliq chegarasiz va izohlarga muhtoj emas, chunki "borliq" tushunchasidek umumiy, yaxlit tushuncha mavjud emas. Bu o'z navbatida, shuni anglatadiki, borliq izoh va tavsifga muhtoj emas, chunki barcha narsani o'zaro taqqoslaganda anglash mumkin. Inson ushbu bosqichda olamni anglashdan o'zi-o'zini anglashga o'tadi va ushbu jarayon Haqni anglash bilan intiho topadi. Islom falsafiy tafakkuriga ko'ra inson Olam qarshisidagi zaif mavjudot emas, balki uning kichik nusxasi sifatida Olamga yaqindir. Zero, Olam Inson borlig'ining tuzilishi va tartibi asosida qurilgan va shu jihatdan o'zining buyuk va muhtasham tuzilishiga qaramay, Insonning xizmatidadir. Ular orasida muvozanat mavjud; Koinot haqidagi inson tushunchasi Inson haqidagi kosmik tushunchaga o'tadi. Inson va Koinot o'rtasidagi munosabatlarni tushunish Tasavvuf ta'limotidagi mashhur "Komil Inson" nazariyaning yaratilishiga asos bo'ldi. Ushu tabiatan teologik nazariyaga ko'ra, Inson Olamdagi barcha mavjudotlarning majmuasi, xulosasi va nihoyasi, eng mukammal namunasi hisoblanadi.

Nasafiyning ontologik qarashlarida vujud kategoriyasining tahlili alohida o'rin tutadi. Mutasavvif borliq muammosini sharhlar ekan, o'rta asr islom faylasuflari Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino "Vojib ul vujud" va "Mumkin ul-vujud" vujud haqidagi qarashlarini to'la qabul qilganligi ko'zga tashlanadi. Masalan, "Komil inson kitobi"ning ikkinchi risolasi birinchi faslini "Vojib ul-vujud bayonida" deb nomlab, vujud haqidagi qarashlarini ilgari surgan. Mazkur faslda, vujudning ikki holat ibtidosi bo'lmagan-qadim ya'ni o'zgarmas, azaliy yoki ibtidosi bor-hodis ya'ni yaralgan tashqarida emasligini qayd etgan. Bu mavzuda quyidagicha fikr yuritgan: "Alloh seni ikki dunyoda aziz qilsin, bilgilki, vujud ikki holatdan o'zga bo'lmas uning yo ibtidosi bor, yo ibtidosiz (azaliy) dir. Agar vujudning ibtidosi bo'lmasa, bu vujud qadim (o'zgarmas, azaliy)dir, agar ibtidosi bo'lsa, bunday vujud hodis (yaralgan)dir. Bu so'z juda ravshan va zohirdir, unda hech qanday maxfiylik yo'q. Yana shuni bilgilki, hech shubhasiz, biz vujudni topamiz. Biz topajak vujud agar qadim bo'lsa, demak, biz vujudi qadimni topganmiz. Agar hodis bo'lsa ham vujudi qadimni topganmiz, negaki hodis qadimsiz bo'lolmas. Hodis mavjud bo'lishi uchun albatta qadimga etmog'i kerak.[2.37] Shuningdek, Aziziddin Nasafiyning fikricha, vojib ul-vujud mavjudligi shart bo'lgan borliq ya'ni eng a'lo va eng muqaddas vujudi qadim. Mumkin ul-vujud esa, mavjudligi shartli bo'lgan borliq-vujudi hodisdir(yaratilgan). Yuqorida keltirilgan argumentlarga asoslangan holda qayd etish joizki, Nasafiyning xulosasi quyidagicha asoslangan: "Vojib ul-vujud olamning Xudosidir va mumkin ul-vujud Xudoning olamidir. Vojib ul-vujud bittadan

FALSAFA

ortiq emas. Negaki bo'lishi shartli bo'lgan narsaning zarurat vojib bo'lar, kulliy (tom) holatda zarurat bittadan ortiq bo'lmas. Vojib ul-vujud ilm, Iroda va Quadrat sohibi bo'lishi kerak, chunki bu uch narsa bo'lmasdan hech kim biror narsa yarata olmaydi".[2.38] Nasafiyning borliq haqidagi qarashlarida ishroq falsafasi izlari ham namoyon bo'ladi. Vujud haqida fikrlarini davom ettirar ekan, Shahobiddin Suxravardiy tomonidan asoslangan "ishroq falsafasi" konsepsiyasi g'oyalari ham tahlil qilgan va o'zining mustaqil tarzidagi konsepsiyasini ishlab chiqqan. "Komil inson kitobi"ning ikkinchi risolasining "Vahdat ahlining boshqa bir toifasi bayonida" beshinchi fasli, "Vujudning zohiri va botini bayonida" deya nomlangan o'n to'qqizinchi risolasining birinchi, "Sifatlar mazharlari bayonida" deb nomlangan uchinchi fasllarida vujud va nur haqidagi g'oyalarga keng o'rin bergan. Mutasavvif ishroqiylik g'oyalari tahlil qilishdan oldin, vahdat ahlining mazkur masaladagi fikrlarini tahlil etganda vahdat ahlining ikki toifaga bo'linishi, ulardan bir toifasi vujudning birdan ortiq emasligi, bu vujud Alloh taoloning vujudi ekanligini, ikkinchi toifa esa vujudni ikki qismga, haqiqiy va xayoliy vujudan iborat ekanligi haqidagi bahsli mavzuni o'rta tashlagan. "Komil inson kitobi"da keltirilgan mazkur fikrlar bizning fikrlarimizning asosi bo'lib xizmat qiladi: "Bilgilki, vahdat ahli ikki toifaga bo'linadi. Bir toifasi deydilarkim, vujud bittadan ortiq emas, bu vujud Alloh taolo va taqaddusdir. Alloh taoloning vujudidan o'zga vujud yo'qdir, bo'lishi ham mumkin emas. Ikkinchi toifa aytadilarkim, vujud ikki qism haqiqiy vujud hamda xayoliy vujudan iborat. Haqiqiy vujud - Alloh taolo, xayoliy vujud dunyodir. Alloh yo'qliksimon Borliq (hastii nestnamoy)dir, olam borliqsimon yo'qlik (nestii hastnamoy)dir".[2.46] Olamdagi har har qanday borliq ilohiy ism va sifatning mazhari deb hisoblagan Nasafiy, Allohning zotiy va fe'liy sifatleri borligini va zotiy sifatlar etti ekanligini ta'kidlaydi.[6.42] Shuningdek, Nasafiy sifat tushunchasini ikki xil ko'rinishda tahlil qiladi: "Allohning zoti va sifatlarini haqiqiy, Allohdan tashqaridagi har bir narsaning zoti va sifatini esa majoziy deb hisoblaydi.[6.177] Nasafiy bu qarashi bilan haqiqiy sifatning Allohga xos ekanligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Nasafiy o'z davrining yana bir nufuzli shaxsi Sadriddin Ko'naviyning Qur'on va hadislarida asmo'i mutarodifa yo'q, degan fikriga qo'shib, aynan shu nuqtayi nazarni qo'llab-quvvatlaydi. Shuni ta'kidlash o'rinliki, tasavvufiy-falsafiy tafakkur tizimini Alloh va koinot asosiga qurgan Sadriddin Ko'naviy (v.673/1274) uchun ham barcha narsaning manbai bo'lgan Allohni zoti jihatidan bilib bo'lmaydi, biroq U azaliy va abadiy ravishda, har bir narsada doimiy tarzda tajalli etadi va o'zini go'zallik, ezigulik, ulug'vorlik kabi sifatlar orqali namoyon etadi. Shu bois, Ko'naviyning fikriga ko'ra, Tangrining sifat va ismlari bu tajallida ismdan boshqa narsa emas. Shu bilan bir qatorda, Aziziddin Nasafiy ism va sifatlariga oid shayxi Sa'diddin Hamaviyning qarashlariga ham o'rin bergan. Shayx Sadiddin Hamaviy sifatni salohiyat, ismni alomat va fe'lni xususiyat deb ta'riflab, sifatning zot martabasi, ismning vajh va fe'lni nafs martabasida ekanini bayon qilgan. Darhaqiqat, Nasafiy o'zi qabul qilgan bu tasnif bilan Allohning ilohiylik maqomini qisman bilish imkoniyatini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, Nasafiy sifatning zotga qo'shimcha bo'lishi yoki bo'lmasligi haqidagi fikrlarini bayon etayotganda, Sadriddin Ko'naviyning qarashlariga to'xtalib o'tgan. Zero, Ko'naviy Haqning sifati bir tomondan zotning ayni, boshqa tomondan zotdan boshqa degan qarashni qabul qiladi. Vahdati vujud tafakkuriga ega bo'lgan Nasafiy uchun ham borliq muammosi muhim ahamiyat kasb etadi. Nasafiy o'z asarida vujudga oid qarashlari bilan ikki guruh haqida so'z yuritadi. Ulardan birini tasavvuf ahli tashkil etsa, ikkinchisini muvahhidlar, ya'ni vahdat ahli tashkil etadi. Nasafiy tasavvuf ahlining Allohning zoti cheksiz va abadiy ekani, har bir mavjudotni har tomonlama qamrab olgani haqidagi qarashlariga o'rin beradi.[8.86^b] Shu bilan birga, Nasafiy vujud yagona va faqat Allohning vujudidan iborat degan qarashlarga ega bo'lgan, shuningdek, Allohning vujudidan boshqa narsa yo'qligini ta'kidlovchi vahdat ahli bilan bir xil e'tiqodga ega.[2.46] Zero, vahdati vujud tafakkurida bir narsaning mavjudligi Allohning mavjudligidir, shu sababli Nasafiy o'z vujudining mavjudligini da'vo qilgan kishi katta xatoga yo'l qo'yishini ta'kidlaydi.[7.87^b] Alloh zotini yashirin xazina sifatida ta'riflagan Nasafiy, Uning zotini boshi va oxiri yo'q, cheksiz va abadiy nur sifatida bayon etadi.[7.87^b] Shuningdek, Nasafiy Allohning zoti jism va yo'nalishlardan xoli ekanini, bo'linish va o'zgarishga qodir emasligini ifodalab, Alloh ham barcha narsalarda botiniy mavjud ekanini, ham zohirda emasligini bir misol bilan izohlaydi. Uningcha, ruh va tana yaxlitligida ruh tana bilan ham birga, ham birga emas. Garchi ruh o'z mohiyati bilan jism zarralarini har tomondan qamrab olgan va jismning har bir zarrasi haqida xabardor bo'lsa-da, ikkalasi ham alohida makon va maqomga ega. Zero, ruh latif, jism esa quyuqdir. Quyuq bo'lgan narsa latif maqomiga erisha olmaydi.[7.104^b] Demak, narsalarning haqiqati Allohning zoti bilan mavjuddir. Allohning zotini esa ko'zga ko'rinadigan barcha mavjudotdan ayri holda bilish mumkin emas. Zero, Alloh O'z zoti bilan mavjud bo'lgan suratlar orqali bilinishi mumkin. Bu

masalada Hululiyalar xato qilganini ta'kidlagan Nasafiy, Allohning zoti har bir mavjudotda mavjud ekanligini va hech bir narsa Uning zotiga to'siq bo'la olmasligini aytgan.[7.105^a] Chunki Nasafiyning fikricha, Allohning zoti haqiqiy latif va haqiqiy muhitdir.[7.105^a] Nasafiyga ko'ra, zohir va botin yagona vujud Allohnikidir va Uning vujudidan boshqa vujud yo'qdir. Zero, Nasafiy nazarida biror narsa doimo yo mavjuddir, yo mavjud emasdir. Agar mavjud bo'lsa, u Allohning borlig'idan iboratdir.[7.136^a] Shu bilan birga, Nasafiy vahdat ahlini o'z o'rnida ikki qismga ajratadi. Ulardan birinchi guruhning qarashlari vujud yagonadir va u Allohga tegishli, undan tashqari vujud yo'q, degan fikrni qabul qiluvchilardir. Suhbatdoshiga ko'targan masalalarni misollar bilan tushuntirgan Nasafiy bu borada ham misollar keltiradi. Darhaqiqat, kecha va kunduz misolida har doim tun bo'lmasdan faqat kunduz bor deb faraz qilish kunduzning qanday ekanligini, uning sifat va xususiyatlari nimalardan iborat ekanligini bilmasligimizni anglatadi. Boshqa tomondan, Nasafiy vahdat ahlining yana bir guruhi haqidagi qarashlarga to'xtalib, vujudni ikki qismga, ya'ni vujudi haqiqiy va vujudi xayoliyga ajratishlarini ta'kidlaydi. Nasafiy vujudi haqiqiyning Allohning vujudi ekanligini ifodalaydi, vujudi xayoliy esa olam va olamdagi barcha narsaning vujudi ekanligi haqidagi qarashdir. Darhaqiqat, vujudi xayoliyning vujudi go'yo bir sarob tasviriga o'xshaydiki, aslida ularning haqiqiy vujudi yo'q.[7.118^b] Nasafiy bu holatni boshqa bir asarida shunday izohlaydi: Alloh ko'rinmaydigan mavjudlik, olam esa mavjud ko'rinadigan yo'qlikdir.[2.72] Shunday qilib, dunyo va undagi narsalarning vujudi mavjuddek ko'rinsa-da, aslida mavjud emas. Bu holat mohiyatan Ibn al-Arabiy tafakkurida biz haqiqat deb idrok etadigan olam va olamdagi har bir narsaning aslida xayol ekanligi tarzida namoyon bo'ladi. Zero, Ibn al-Arabiy haqiqat yoki Mutlaq Haqiqat atamasi bilan Haqni nazarda tutadi.[6.46] Ibn al-Arabiy tafakkurida Haq, ya'ni zoti bilan hamma narsadan xoli bo'lgan Tangri bilib bo'lmasa-da, vajhiy nuqtayi nazaridan mushabbah bo'lishi jihati bilan bilinishi mumkin. Vujudda ko'plikni qabul qilmaydigan Nasafiy, ahadi haqiqiy bo'lgan Allohni xuddi uning izdoshi bo'lgan Ibn al-Arabiy kabi zot nuqtayi nazaridan bilib bo'lmaydi, degan qarashdadir. Darhaqiqat, Nasafiy vujudning uch jihati bor, ya'ni zot, vajh va nafs, degan fikrdadir. Bu xususda murakkab va oddiy(bosit) vujudning zot, vajh va nafs jihatlarini bir-biridan farq qilishini ta'kidlaydi.[2.80] Nasafiy har bir tushunchani misol orqali tushuntiradi. Uning fikricha, daraxtning urug'i daraxtning zoti, daraxtning etilishi va meva berishi vajhi, urug'i bilan paydo bo'lib etilishi va daraxtga aylanishi, ya'ni har ikki bosqichning birlashuvi holatini esa daraxtning nafi deb izohlaydi.[7.141^a-141^b] Nasafiyga ko'ra, yagona haqiqiy zot bo'lgan Allohning zoti nurdir, nur o'z butunligi bilan barcha mavjudotning vajhini tashkil etadi, ikkala jihatning yig'indisi esa bu nurning nafs martabasini tashkil qiladi.[2.112] Bu yo'nalishda Nasafiy, Allohning vajhi har bir borliqda aks etadi va uni har tomondan qamrab oladi, degan fikrni ilgari suradi. Zero, "Qayerga yuz bursangiz, Allohning yuzi o'sha erdadir" oyatiga ko'ra Nasafiy Haqning vajhini isbotlash xususiyatiga ega, deb hisoblaydi.[7.141^b] Boshqa tomondan, Nasafiy Haqning vajhiga erishgan, ammo Haqning zotiga etisha olmagan kishini vahdati sirfaga etisha olmagan uchun mushrik deb ta'riflashda, Allohning vajhidan o'tib, zotiga etishgan kishini ham Haqni birlashuvi sababli muvahhid deb ta'riflaydi. Chunki Nasafiyga ko'ra, mushriklar o'zlari yo'nalgan narsa nuqtayi nazaridan Haqning vajhiga yo'nalganlar, ammo ular mutlaq vajh bo'lgan Haqni muqayyad vajh deb bilganlar.[6.66] Ya'ni mushriklar abadiy bo'lgan Allohni butlar bilan gavdalantirib, o'zlaricha ko'rinadigan qilganlar. Bundan tashqari, mushriklar butlarga ilohlik sifatini berib, Allohning yagonaligini butunlay inkor etmoqda va tashbihda haddan oshib ketmoqdalar.[5.94] Holbuki, (yashirin)kanzi maxfiy bo'lgan Alloh, O'z vajhi bilan olamga aks etib, ism va sifatlari bilan tanilishni murod qilmoqda. Olamdagi har bir mavjudotni ilohiy ism va sifatlarning mazhari deb bilgan Nasafiy, Allohning zotiy va fe'liy sifatlari borligini va zotiy sifatlari ettita ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, Nasafiy sifat tushunchasini ikki xil ko'rinishda ko'rib chiqadi: Allohning zoti va sifatlari haqiqiy, Allohdan tashqaridagi barcha narsaning zot va sifatini esa majoziy deb hisoblaydi.[6.42] Uningcha, bir narsaning haqiqiy sifati o'sha narsa bilan birga bo'lishi va o'sha narsaning zotining bir mazharidir. Nasafiy nazdida sifat mavsufning aynan o'zidir degan kishi haqiqiy sifatni ko'rsatmoqda. Majoziy sifat esa biror sababga ko'ra zot bilan birga bo'lmagan, shu sababli zotning mazhari bo'lmagan sifatdir. Shunday ekan, sifat mavsufdan ayridir degan kishi majoziy sifatni ko'rsatmoqda.[7.104] Nasafiy bu qarashi bilan haqiqiy sifatning Allohga xos ekanligini ifodalaydi. Shu bilan birga, Nasafiy o'sha davrning yana bir e'tiborli shaxsi Sadriddin Ko'naviyning Qur'on va hadislarda asmoi mutarodifa yo'q, degan fikriga qo'shilib, ayni nuqtayi nazarni bildiradi.[7.106^a] Ta'kidlash joizki, tafakkur tizimini Alloh va koinot asosiga qurgan Ko'naviy (v.673/1274) uchun ham barcha narsaning manbai bo'lgan Tangri zoti jihatidan bilib bo'lmaydi, biroq U azaliy va abadiy ravishda, har bir narsada doimiy tarzda tajalli etadi va o'zini go'zallik, ezgulik, ulug'vorlik kabi sifatlari

FALSAFA

orqali namoyon etadi. Shu bois, Ko'naviyning fikricha, Tangrining sifat va ismlari bu tajallida nomdan boshqa narsa emas.[8.68] Shu bilan birga, Nasafiy ism va sifatlariga oid shayx Sa'diddin Hamaviyning qarashlariga ham o'rin bergan. Shayx Sa'diddin Hamaviy sifatni salohiyat, ismni alomat va fe'lni xususiyat deb ta'riflab, sifatning zot martabasi, ismning vajh va fe'lning nafs martabasida ekanligini bayon qiladi.[7.106^b] Darhaqiqat, Nasafiy o'zi qabul qilgan bu tasnif bilan Allohning ilohiylik maqomini qisman bilish imkoniyatini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, Nasafiy sifatning zotga qo'shimcha bo'lishi yoki bo'lmasligi haqidagi fikrlarini ifoda etar ekan, Sadriddin Ko'naviyning qarashlariga to'xtalib o'tadi. Zero, Ko'naviy Haq sifatleri bir tomondan zotning ayni, boshqa tomondan zotdan boshqa degan qarashni qabul qiladi.[7.106^b] Nasafiy bu masalada Ko'naviy bilan bir xil fikrda. Chunonchi, Nasafiy Allohga nisbat beriladigan sifati ma'oniyning e'tiboriy va izofalardan iborat ekanligini, zotdan tashqari unda biror mavjudot yo'qligini ta'kidlab, bir tomondan sifatning zotning ayni o'zi ekanligini izohlaydi. Shu bilan birga, sifatning ma'nolari sifatlariga mos keladigan ismlarning e'tiborlaridan farqlanadi, va bu farq sifatning zotdan boshqa ekanligini ko'rsatadi.[7.106^b] Nasafiy Hayy, Olim, Murid va Qodir ismlarining ma'nosi zoti qadim bilan qoim ekanligini, ya'ni har bir ismning Allohning hayot, ilm, iroda, qudrat va boshqa sifatleri ma'nosi bilan Allohning zotiga qoim ekanligini ta'kidlaydi.[7.106^b]

Keyingi o'rinlarda ishroq falsafasi g'oyalariga o'rin ajratib, vujudning bitta ekanligi, ammo bu vujudning botini va zohiri haqidagi qarashni tadqiq etib, "uning botini-nur, zohiri-nurning tajalliysidir, bu nurning sifatlarini mazhari va ko'zgusidir"[2.204]-deb qayd etgan.

Masalan, mutasavvifning "Bilgilki, vahdat ahlining aytishicha, vujud bittadan ortiq emas va bu vujud Alloh taolo va taqaddusdir. Allohning vujudidan o'zga vujud yo'q va bo'lishi ham mumkinmas. Yana aytadilarkim, vujud bitta bo'lgani bilan bu vujudning zohiri va botini bordir. Bu vujudning botini nurdur. Bu nur olamning jonidir. Olam bu nurdan limmo-lim to'ladir. Bu nur cheksiz va nihoyasizdir, had-hududsiz va tubsiz ummondur; mavjudotning hayoti, ilmi, irodasi va qudrati ushbu nurdandir; mavjudotning ko'rish, eshitish, gapirish, harakat va fikrlash qobiliyati ushbu nurdandir; mavjudotning tabiati, xosiyati va faoliyati ham ushbu nurdandir. Asli bularning barcha-barchasi ushbu nurdan hosil bo'lgandir"[2.204]-mazmunidagi fikrlari yuqoridagi fikrlarni dalillashga yordam beradi. Nasafiyning tushuntirishicha, vujudning botini nur bo'lsa, uning zohiri nurning mishkoti (qandil)dir. Ya'ni nurning sifatlarini ro'yobga chiqaruvchidir. Mavjudotning turlari ushbu nur sifatlarining mazharlari(zuhuri, ko'rinishi, ta'ayyuni) bo'lib hisoblanadi. Insonning haqiqiy vujud haqidagi turli shubha va gumonlardan qutulmoqchi bo'lsa, ushbu nurga etishmog'i, ushbu nurni ko'rmog'i hamda shu nur bilan olamni ko'rmog'i kerak. Shundagina shirkdan qutuladi va kasrat oradan ko'tarilib, sargardonlik qolmaydi, vujud bittadan ortiq emasligiga shubhasiz muqarrar bo'ladi. Mutasavvifga ko'ra, borliq yo'qdan bor qilingan va bu Haqning ilm, irodat va qudrati bilan amalga oshgan. Mumkin emaski, deydi Nasafiy "daraxtdagi bir yaproq uning ilmi, irodasi va qudratisiz qimirlay olsa. Har narsaki, olamning juz'iyot va kulliyotidan bor edi va keyin ham mavjud bo'ladi, Haq taolo hazratlarining ilmi, irodati va qudratiga tobedir. Agar xohlasa, bir tarafat'l-ayn (ko'z ochib yumguncha) ichida ilmi, irodati va qudrati ila bu olam kabi ming olamni yo'qdan bor qiladi. Agar xohlasa, shu tarafat'l-ayn (ko'z ochib yumish) ichida olamni ilmi, irodati va qudrati bilan adami sirf (mutlaq yo'qlik) qiladi[1].

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan shunday xulosa qilish mumkinki, Aziziddin Nasafiyning tasavvuf ontologiyasiga oid qarashlari tasavvuf va falsafa tarixida munosib nom qozongan "vojib ul-vujud", "vahdat ul-vujud" va ishroqiylik kabi konsepsiyalarning g'oyalari bilan bog'liq. O'z o'rnida mutasavvif yuqoridagi konsepsiyalar tahlil qilib, o'zining mustaqil qarashlarini ilgari surgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu'l-Alâ Affî, al-Ta'liqât 'alâ Fusûs al-Hikem, Beyrut 1980.
2. Aziziddin Nasafiy. Komil inson kitobi. Najmiddin Komilov, Olimjon Davlatov tarjimai. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, Toshkent: 2021. -223 b.
3. Ekrem Demirli, "Vahdet-i Vücûd", TDV İslam Ansiklopedisi, İstanbul 2012, c. 42, s. 431-433.
4. İzutsu, T. İbn Arabî'nin Fusûs'undaki Anahtar-Kavramlar (A. Y. Özemre, Çev.; 7. bs). Kaknüs Yayınları, 2023. İstanbul. - 210 s.
5. İsmail Fennî Ertuğrul, Vahdet-i Vücûd ve İbn 'Arabî (published by Mustafa Kara), İstanbul 1991.
6. Neseffî. *Tenzil - Tasavvuf* Varlık Bilgi ve İnsan. Yayına Hazırlayan Selami Şimşek. Litera Yayıncılık. İstanbul. 2020., - 190 s.
7. Neseffî, Maksad-ı Aksâ, Süleymaniye Kütüphanesi, Mihrişah Sultan Koleksiyonu: 000206.

8. Nihat Keklik, "Sadreddin Konevi Düşüncesinde İnsan, Kader ve Ahlak", 1964.
9. Suâd Hakîm, al-Mu'cam al-Sûfî, al-Hikma fî Hudûdi'l-Kalima, Beyrut 1981, pp. 1145-1157;
10. Ferit Kam, İbn 'Arabî'de Varlık Düşüncesi, (published by Mustafa Kara), İstanbul 1992.